



Received: July 11, 2024
Accepted: September 19, 2024
Available online: September 25, 2024

Dilrabo Tohirova

Tayanch doktorant
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Toshkent, O‘zbekiston

Dilrabo Tokhirova

PhD Student
Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: masterdt2007@gmail.com
ORCID iD: 0009-0002-6444-6303

SYUZAN HILL ASARLARIDA BOLALAR OBRAZI TASVIRI

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Syuzan Hill asarlaridagi bolalik va bola obrazi tasviri o‘rganilgan. Maqolaning asosiy qismida S.Hillning bola obrazi va bolalik davri tasvirini o‘zida mujassam etgan nasriy asarlari misolida uning bolartasviridagi mahorati tadqiq etilgan. Maqolaning maqsadi – S.Hill asarlaridagi parallel mavzular, xususan, oilaviy munosabatlar, bolalar qo‘rquvi, umidsizlik va yovuzlik, muallif tasavvuridagi bolalik va bolalarga xos xususiyatlarni ochib berishdan iborat. Tadqiqotning vazifalari sifatida S.Hillning “I’m the King of the Castle”, “A Change for the Better”, “The Albatross”, “Friends of Miss Reece”, “The Elephant Man”, “A Bit of Singing and Dancing” kabi asarlari misolida bola obrazining o‘ziga xos tomonlarini tahlil qilish belgilab olingan.

Maqolada, xususan, badiiy, qiyosiy va tarixiy-biografik tahlil kabi ilmiy tadqiqot metodlari qo‘llanilgan, ya’ni bolalar obrazlari asarlardagi dialoglar, tashqi ko‘rinish hamda ruhiyat tasvirlariga ko‘ra tahlil qilingan. Kingshou, Xuper, Duncan, Kol, Uilyam kabi protagonist (asosiy qahramon) bola obrazlari bir-biri bilan qiyoslangan. Bundan tashqari, maqolada S.Hill shaxsiyati, ko‘rgan-kechirganlari u yaratgan obrazlarga qanday ta’sir ko‘rsatganligi muhokama qilingan. Tahlilga tortilgan bola obrazlarining umumiy va xususiy tomonlari mavjudligi ko‘rsatilgan; (1) deyarli barcha bolalar obrazlarida qo‘rquv mavjud; (2) bolalar oilaviy munosabatlarida qiyinchilikka uchraydilar; (3) bolalar yolg‘izlikdan qiynalishadi. Bularning natijasida esa tahlil qilingan bolalar qalbida yovuzlik paydo bo‘ladi. Tahlilga olingan

PORTRAYALS OF CHILDHOOD IN THE LITERARY WORKS OF SUSAN HILL

ABSTRACT

This article will explore Susan Hill’s portrayal of childhood and children in her works. The main focus of the analysis will be on how the author describes children in selected prose works, including their fears, family relationships, despair, and the characteristics of childhood. The goal of this article is to uncover recurring themes in S.Hill’s works and to study how she depicts children in stories such as “I’m the King of the Castle”, “A Change for the Better”, “The Albatross”, “Friends of Miss Reece”, “The Elephant Man”, and “A Bit of Singing and Dancing”. The research will involve analyzing the unique aspects of children’s depictions in these works.

The article utilizes scientific research methods such as artistic, comparative, and historical-biographical analysis. It analyzes children’s characters based on their dialogues, appearance, and mental images in literary works. The main characters, Kingshaw, Hooper, Duncan, Col, and William, are compared with each other. The article also discusses the author, S.Hill, and how her experiences influenced the characters she created. It is demonstrated that there are both general and specific aspects of the analyzed children’s images: (1) fear is present in almost all children’s images; (2) children experience difficulties in family relationships; (3) children suffer from loneliness, leading to a portrayal of evil within the analyzed children. The children’s images reveal unsatisfactory family relationships, parental abuse of rights, and some children, like Col, feeling bored with their peaceful and happy lives. Furthermore, characteristics of cruelty and malice, born in children like Duncan and Col, or

bolalar obrazlarida yoki oilaviy munosabatlari nosogʻlom yoki ota-onalari ularning huqularini suiisteʼmol qilgan yoki baʼzi bolalar (Kol) shunchaki tinch va baxtli hayotlaridan zerikkan boʻladi. Bundan tashqari, bolalarda tugʻma (Xuper) yoki keyinchalik tashqi taʼsir natijasida kelib chiqqan dilozorlik va zulmkorlik (Duncan, Kol) xususiyatlari ham aniqlanadi. Bolalarning baʼzilari (Xuper, Duncan) esa boshqalar ustidan nazorat qilishga intilishadi.

Yuqoridagi tadqiqot natijalari muallif yozuvchi sifatida berishga harakat qilgan tushuncha tufayli bolalar hayotidagi juda murakkab boʻlgan koʻplab baxtsiz voqea-hodisalarning oldini olish mumkin, deya xulosa qilishga undaydi.

Kalit soʻzlar: adabiyot, bola obrazi, qoʻrquv, oilaviy munosabatlar, bolalardagi yovuzlik, kuch-qudrat, egalik hissi, ota-ona, protagonist, qiyinchiliklar.

KIRISH

Bola obrazi tasviri adabiyotda koʻp qirrali boʻlib, u doim oʻzgarishdagi hodisa hisoblanadi. Adabiyot tarixida bolalar turli xil yoʻsinda, jumladan, ideal bola, mukammal bola, xarakteri ogʻir bola, begunoh, shoʻx va oʻyinqaroq bola sifatida tasvirlangan. R.Pattison taʼkidlaydiki, adabiyotda bolalar obrazi bilan bogʻliq turli xil motiv va mavzular mavjud [Pattison, 2008; 10]. Bolalardagi begunohlik va soflik, asosan, ertaklarda tasvirlanadi. Ulgʻayish motivli asarlarda esa adiblar bolalarning bolalik davridan kattalik davriga oʻtishlaridagi qiyinchilik, murakkablik va oʻzlarini anglash kabi tabiiy hodisalariga urgʻu beradilar. Bolalarning zaifligi va chidamliligi toʻgʻrisidagi motivli asarlarda ularning hayotdagi ogʻir zarbalar, kambagʻallik va turli yoʻqotishlar bilan bogʻliq azoblar, shu bilan birga, mazkur toʻsiqlarni yengish uchun oʻzlarida ichki kuch topa olishlari hamda gʻalaba qozonish holatlari yozuvchilar tomonidan tasvirlanadi. Bolalarning tasavvur olami va hayratiga bagʻishlangan motivli asarlarda esa ularning qiziqqonligi, tasavvur olamlarining kengligi, ijodiy xususiyatlarga boyligi va fantastik sarguzashtlarni sevishi kabi jihatlar yozuvchilarning eʼtibor markazida boʻladi. Oʻz navbatida, baʼzan bolalar obrazi orqali adiblar jamiyatdagi nuqsonlar, gender notenglik, irqiy tengsizlik, siyosiy boʻhronlar va urush talafotlari kabi illatlarni ham yoritishga harakat qilishadi. Bunday xilma-xil motivlar va xarakterlar bolalar obrazi tasvirlarining yetarlicha murakkab ekanligini va ularni oʻrganishning dolzarb ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Bolalik mavzusi va bola obrazi asrlar davomida koʻplab oʻzgarishlarni boshdan kechirgan [Flegel, 2016]. P.Xant taʼkidlaydiki, turli xil jamiyatlar bolalikni turlicha tushunishadi, bolalik maʼnosi nafaqat maʼlum bir millatda, balki jamiyatning eng kichkina birligi boʻlmish oilalarda ham oʻziga xos tarzda ifodalanadi [Hunt, 1994; 5]. Bola obrazi mavjud siyosiy va ijtimoiy hodisalar bilan chambarchas bogʻliq. Madaniy va diniy taraflama qadriyatlarining oʻzgarishi ham bolalar obrazi tasviriga oʻz taʼsirini

developed later as a result of external influences, are also identified. Some of the children, like Hooper and Duncan, seek to control others.

The results of the above research lead to the conclusion that many unfortunate events in the lives of children can be prevented through the understanding that the author tried to convey as a writer.

Key words: literature, child image, fear, family relations, evil in children, power, sense of ownership, parents, protagonist, difficulties.

o'tkazadi. S.Mintzning yozishicha, bolalik ma'lum bir ijtimoiy tushuncha sifatida 1500–800-yillar oralig'ida shakllangan. Bu davrda, ya'ni o'rta asrlardagi Yevropada bolalar havas qilarlik qadr-qimmatga ega bo'lmagan davrlar edi [Mintz, 2004; 7]. Bolalarga kattalardan umuman farq qilmagan munosabatda bo'lishgan va voyaga yetgan odamlarning shunchaki kichik varianti sifatida qarashgan. Umuman olganda, bolalar qiyinchiliklarni yengishda uquvsiz mavjudot sifatida qaralgan. O'rta asrlar Yevropasida bolalarga nisbatan qattiqqo'llik bilan tarbiyalash usullari qo'llanilgan va bu holat puritanlar – XVI va XVII asrlarda Angliya cherkoviga qarshi bo'lgan protestantlikni targ'ib qilgan diniy guruh vakillari – davrida ham o'z aksini topgan. S.Bubikova yozganidek, puritanlar bolalarning tabiatan gunohkor bandalar ekanligiga ishonishgan va ulardan o'zlarini tarbiyalashni qat'iy talab qilishgan [Bubiková, 2008; 14]. S.Mintz aytadiki, yangi tug'ilgan chaqaloqlarni ham agressiv impulsiga ega bo'lgan ashaddiy gunohkor yaratiq deb qabul qilishgan [Mintz, 2004; 12]. Biroq bu holat puritanlarning qattiqqo'l ota-onalar sifatida emas, balki bolalar tabiatini birinchi bo'lib tizimli tarzda aks ettirgan shaxslar guruhi sifatida talqin qilinishlarini tasdiqlaydi. Bu esa, o'z navbatida, bolalikning muhimligiga urg'u berib, bolalarni katta qilish borasida yana ham keng ko'lamlil va chuqur nazariyalarning paydo bo'lishiga turtki bo'ladi.

Puritanlarning XVI va XVII asrlardagi realistik g'oyalar ustunlik qilgan bolalar va bolalik haqidagi g'oyalariga zid ravishda XVIII asrda mutlaq yangi qarashlar vujudga keldi. Bu qarashlar romantik qarashlar deb atalib, bolalarni beg'ubor, pok va ixtiyorsiz xarakterga ega bo'lgan yaratiq sifatida qabul qilishgan va bu g'oya bugungi kundagi bolalarga munosabat va bola tarbiyasiga bo'lgan umumiy qarashlarning shakllanishiga o'z hissasini qo'shgan. O'z davri uchun mutlaq yangi bo'lgan bu nazariyalar ingliz faylasufi Jon Lokning ta'lim borasida yozgan risolasining paydo bo'lishiga asos bo'lib xizmat qildi. J.Lok bola ongiga nisbatan "top-toza mum taxtacha", "oppoq qog'oz" istilohlarini qo'llagan. Bola ongida tug'ma zararli fikrlar bo'lmaydi. U yana ta'kidlaydiki, ota-onalar bolalarining har qanday zararli bo'lgan kattalar dunyosining haqiqatlaridan himoya qilishlari zarur [Bubiková, 2008; 17]. Bulardan tashqari, bolalarga bo'lgan munosabatlarning o'zgarishi ma'rifatparvarlik davrida paydo bo'lgan qarashlar bilan ham bog'liq. Ular bolalikning shakllanish fazasi ekanligiga urg'u berib, undan zavqlanishga undaydi. Beg'ubor bolalarning sentimentallashtirilgan nazariyasi XIX asrda ham ustuvor bo'ldi [Moruzi et al., 2017; 12]. Bu asrdagi o'rta sinf ota-onalari bolalariga o'zini o'zi nazorat qilish orqali ularning agressiv impulsini qo'lga olishlarini o'rgatishga harakat qilishgan. Shunga qaramay, bolalarga bo'lgan umumiy munosabat oldingi asrlarga nisbatan ancha yaxshilangan [Bubiková, 2008; 21]. XX asrga kelib, bolalar oilaning yadroviy qismiga aylandi. Zamonaviylashtirish (1950–1960-yillar) davridan oldingi va keyingi bolalar obrazlarining ko'p jihatlarini bir-birini takrorlaydi, masalan, ikkisi ham kattalar tomonidan alohida e'tibor beriladi yoki ikkisi ham pok va beg'ubor hisoblanadi. S.Mintz qayd etadiki, zamonaviylashtirish davridan keyingi bolalar obrazi mustaqil iste'molchiga aylanganligi, ma'lum bir ijtimoiy-madaniy jarayonlarning mustaqil ishtirokchisi bo'lganligi bilan ham oldingi davr bola obrazlaridan keskin farq qiladi

[Mintz, 2020; 4]. Eng asosiysi, bu davrga kelib, bolalar mustaqil va alohida shaxs sifatida qabul qilina boshlandi.

Bolalar obrazlariga ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar vaqt o'tishi bilan butkul yoki qisman farqlanadi [Lumby, 2010]. Binobarin, bolalarga bo'lgan munosabat, bolalikdan kattalikka o'tish davri masalalari adabiyotda aks ettirilgan. Masalan, bolalar asosiy qahramonlar yoki syujetda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan kichik epizodlar sifatida tasvirlangan asarlar ko'plab uchraydi. Shunga qaramasdan, adabiyotda bolalar obrazi tasvirlanishining asosiy sababi bolalar ko'rgan-kechirganlarining kattalar tomonidan tushunib yetilishiga yordam berishdir. Bolalikka oid qarashlar o'zgarishi bilan, adabiyotda ham bolalar obrazi tasvirlari yangilanib, o'zgarib turgan. XIX asr bolalari adabiyotda ham kattalarga itoat qilishi kerak bo'lgan obraz sifatida qoladi. Aniqrog'i, bolalar shunchaki kattalar tomonidan foydalaniladigan no'noq yaratilgan sifatida tasvirlangan. Charlz Dikensning "Oliver Twist" va Sharlotta Brontening "Jeyn Eyr" asarlaridagi bola obrazlari bunga yaqqol misol bo'la oladi. So'nggi paytlarda vujudga kelgan, ya'ni XXI asrga xos bo'lgan bolalar obrazining asarda hal qiluvchi vosita sifatida tasvirlanishi ko'plab adiblarning qiziqishiga va bu sohada ham qalam tebratishni sinab ko'rishlariga sabab bo'ldi. Vaholanki, Syuzan Hill ham mana shunday adiblar qatorida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan yozuvchilardan biri hisoblanadi.

TADQIQOT METODLARI

Badiiy asarni nafosat talablariga muvofiq tarzda tahlil etish uchun rioya qilinishi shart bo'lgan muayyan talablar tizimi va tahlil metodlari mavjudki, ularga amal qilmaslik mumkin emas [Yakubov & Omanova, 2020; 51]. Adabiyotda ko'plab bola obrazi yaratilgan va adabiyotshunoslar tomonidan muntazam ravishda tahlil qilinib boriladi. Ushbu maqolada bola obrazini batafsil ochib berish uchun qiyosiy, badiiy, tarixiy-biografik tahlillar va mavzu analizi kabi ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

Qiyosiy tahlil metodi S.Hillning "A Change for the Better" ("Yaxshilikka o'zgarish") [Hill, 1969] asaridagi Kol, "I'm the King of the Castle" ("Men qal'a qiroliman") [Hill, 1970] asaridagi Kingshou va Xuper, "The Albatross" ("Albatros") [Hill, 1971a] asaridagi Duncan, "Friends of Miss Reece" ("Ris xonimning do'stlari") [Hill, 1971b] va "The Elephant Man" ("Fil odam") [Hill, 1975] asaridagi bolalar obrazlari ruhiyatining o'zaro taqqoslanishini o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, S.Hillning bola obrazini yaratishiga asos bo'lgan qarashlari shu davrda qalam tebratgan boshqa yozuvchilarning (Entoni Byordjess va Uilyam Golding) qarashlari bilan ham qiyoslandi.

Badiiy tahlil metodi esa qahramonlar xarakteri, o'ziga xosliklari, ruhiyati, bolalarning ulg'ayishida oilaviy munosabatlarning o'rni to'g'risida xulosalar chiqarish uchun asardan olingan parchalarni tahlil qilishda foydalanildi. Ushbu maqolada keltirilayotgan tahlillarni isbotlash uchun yuqoridagi asarlardan jami o'n yettita parcha keltirildi. Bu parchalar bola protagonistlarning dialoglari, hikoyanavis tasviri, qahramonlarning o'y-fikrlari yoki holat tasvirlaridan iborat.

Muallif hayotida yuz bergan hodisalar (turmush o'rtog'ining o'limi, oilada yolg'iz farzand ekanligi), uchratgan shaxslar, shu bilan birga, oilaviy munosabatlarining asardagi bolalar obrazi yaratilishiga ko'rsatgan ta'siri tarixiy-biografik tahlil metodi orqali oydinlashtirildi.

Bundan tashqari, barcha bolalarning ruhiyati va xarakteriga xos bo'lgan umumiy tomonlari aniqlab olindi. Aniqlab olingan xususiyatlar va o'xshashliklar beshta: kuch-qudrat va egalik hissi, bolaning qo'rquvlari, yolg'izlik va ajralib qolish, oilaviy munosabatlar hamda bolalardagi yovuzlik mavzulariga tasniflandi.

NATIJALAR

S.Hill bir qancha mashhur romanlar, hikoya to'plamlari muallifi, muxbir, muharrir va tanqidchidir. Uning dastlabki ijod namunalari oltmishinchi yillar boshida o'zining ko'rgan-kechirganlari bilan bog'liq bo'lib, asosan, dunyodan ajralib qolish holatlari va insonlar orasidagi sovuq munosabatlarni tasvirlaydi. U mana shunday umidsizlik holatlaridan biroz qutulish uchun ham yozuvchilik qilgan. S.Hill ijodida eng ko'zga tashlanadigan motivlardan biri bolalik hisoblanadi [Miquel-Baldellou, 2021]. Yuqorida aytib o'tilganidek, S.Hill bolalar ongini tasvirlashga qo'l urgan va bolalar psixologiyasini batafsil tasvirlashga alohida e'tibor bergan romannavislardan biri hisoblanadi [Woolfe, 1997; 8]. S.Hill bola bo'lish o'zi qandayligi, ular qanday his qilishlari, boshqalar tomonidan ularning his-tuyg'ularining noto'g'ri talqin qilinishi, ayniqsa, ko'pincha, ularning kattalar tomonidan mensinilmasligi kabi jihatlariga e'tiborni qaratadi. S.Hill bolalar obraziga bo'lgan kuchli qiziqishini "*I'm the King of Castle*" asarining kirish qismida quyidagicha ifodalaydi: "Men butun dunyo bilan ziddiyatda bo'lgan bolalar obrazlariga qiziqdim" [Hill, 1970; 6]. S.Hill asarlaridagi bolalar, asosan, ota-onasi ajrashgan yoki notinch oilalardanning farzandlari hisoblanadi. Bundan tashqari, yozuvchi o'zining bolalik tajribalaridan ham ilhomlanadi. Ayniqsa, "*I'm the King of the Castle*" va "*A Change for the Better*" asarlarida o'zining ko'rgan-kechirganlari o'z aksini topadi. Aniqroq qilib aytganda, o'zining yolg'iz farzand bo'lganligi asarlaridagi yolg'iz farzand obrazini jonli va qiziqarli qilib yaratishiga yordam beradi. Shuningdek, yozuvchi hayotida sodir bo'lgan og'ir tajribalardan biri – o'z tengqurlari tomonidan zo'rvonlikka uchraganligi kabi holat "*I'm the King of the Castle*" asarida yaqqol namoyon bo'ladi.

Parallel mavzular

S.Hill bolalarning azoblanishiga va bolalik mavzusiga befarq emasligini uning bir qancha asarlari orqali ko'rishimiz mumkin. Uning markaziy va takroran muhokama qilinadigan mavzulariga kuch-qudrat, zo'rvonlik, ajralib qolish, qo'rquvlar hamda notinch oilaviy munosabatlarni kiritishimiz mumkin.

"*A Change for the Better*" [Hill, 1969] hikoya protagonisti aqlli, ziyrak, o'y-fikrli va iqtidorli bola Jeyms Faunt bo'lib, u buvisi va onasi bilan yashaydi. Jeymsning onasi esa yolg'iz ona bo'lib, erining o'limidan so'ng yangi hayot boshlashga harakat qilayotgan edi. Baxtga qarshi, bunday qiyin vaqtda onalik rolini bajarishda muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Bu asarda S.Hill yolg'izlik hissini, sovuq oila munosabatlarini, ayniqsa, ona-bola o'rtasidagi mutlaq tushunmovchilikni tasvirlashga

harakat qiladi.

“*I’m the King of the Castle*” [Hill, 1970] romanida esa yuqorida tilga olingan barcha mavzularni uchratishimiz mumkin [Deeb, 2021]. Bu asar ikkita o‘n bir yashar bolaning achchiq kurashi haqida. Ular Charlz Kingshou va Edmund Xuper. Bu bolalar bitta uyda yashashga majbur bo‘ladi va shu davrdan boshlab ularning hayot uchun kurash onlari boshlanadi. Baxtga qarshi, bu kurash, Edmund Xuperning to‘xtovsiz zo‘ravonligi va tajovuzkorligi sababli Charlz Kingshouning o‘limi, ya‘ni o‘z joniga qasd qilishi bilan yakun topadi.

S.Hill boshqa asarlarida ham bolalik mavzusi va bola obrazini davom ettiradi. Ulardan biri “*The Albatross and other stories*” [Hill, 1971a] nomli hikoyalar to‘plamidir. “*The Albatross*” bolalar baxtsizligi tasvirlangan eng dahshatli asarlaridan biri. Bu asardagi asosiy qahramon aqli zaif bola Dunkan bo‘lib, u nogiron onasidan qochib ketishga harakat qiladi. Umidsizlik ruhiy holatida u uyini yoqib yuboradi, o‘z onasini nogironlar aravachasida okeanga itarib yuborib, yangi hayot boshlashga qaror qiladi.

“*Friends of Miss Reece*” [Hill, 1971b] hikoyasida bola va ota-ona o‘rtasidagi sovuq va hissiz munosabatlar tasviri o‘z aksini topgan. Bolakay qariyalar uyida yashayotgan xolasi bilan tez-tez qolib ketishga majbur bo‘ladi, bolaning ota-onasi esa bu vaqtda kechki klub va restoranlarda vaqtichog‘lik qilib yurishadi.

“*The Elephant Man*” [Hill, 1975] hikoyasida esa bolalar qo‘rquvlariga katta e‘tibor qaratiladi [Zemanová, 2009; 9]. Bosh qahramon sezgir va ta‘sirchan bola Uilyam tanimagan bolalar bilan ziyofatda qatnashish uchun bir mehmonxonaga keladi. Ziyofat bola uchun dahshatli tushga aylanadi, chunki o‘zini juda begona his qiladi. Shunga o‘xshash holatlarni “*A Bit of Singing and Dancing*” (“*Bir oz qo‘shiq va raqs*”) (1973) nomli hikoyalar to‘plamida ham ko‘rish mumkin. Bolalar bu to‘plamda umidsiz va butkul e‘tibordan chetda qolgan obrazlar holatida tasvirlanadi. “*The Badness within Him*” (“*Uning ichidagi yomonlik*”) [Hill, 1973] asarida esa S.Hill qahramonining o‘z oila a‘zolaridan begonalashuvi holatini kuzatishimiz mumkin. Hikoya qahramon bolaning sokin-tashvishsiz holatda otasining okeanda cho‘kib ketayotganini tomosha qilib turishi bilan tugaydi.

Kuch-qudrat va egalik hissi

Bolalar o‘zlarining olamlarida boshliq va xizmatkor, qurbon va zo‘ravon kabi iyerarxik tartiblarni o‘rnatishga moyil bo‘lishadi [Holland, 2004]. Har qanday do‘stlik munosabatlarida mas‘ul lider bo‘ladi. Lider zimmasiga esa boshqalarni nazorat qilish va ular ustidan qaror chiqarish kiradi. Kuch-qudratga erishish uchun xohish va undan yomon maqsadlarda foydalanish, liderlik va zo‘ravonlik S.Hillning “*I’m the King of the Castle*” asarida mukammal tasvirlangan. Asarning nomi ham bu kuch-qudratga erishish uchun bo‘lgan kurashga ishora qiladi. T.Sullivan tushuntiradiki, bu nom shunday nomlanadigan o‘yindan olingan, bunda bir bola stol, daraxt yoki boshqa baland narsa ustiga chiqib, boshqa bolalarni uning o‘rnini egallashiga qarshilik qilib turishi kerak [Sullivan, 1990; 4]. Xuddi mana shunday holat Edmund Xuper degan buzg‘unchi-qoidabuzar bolakay va uning zo‘ravonligi qurboni Charlz Kingshou bilan sodir bo‘ladi. Bu ziddiyat Kingshouning Xuperlar uyiga kelganining birinchi

kunidanoq boshlanadi. Xuper bir qog‘ozchaga “Kelishingni xohlamagandim” deb yozib, Kingshouga otib yuboradi [Hill, 1970; 18]. U Kingshouga Xuper va uning otasi turadigan uy, Uarings faqat ularga tegishli ekanligini, boshqa hech kim bu uyga kelishi kerak emasligini uqtirib qo‘ymoqchi bo‘ladi. Xuperning o‘ylashicha, Kingshou va uning onasi bosqinchi edi. Mana shu sababdan bu asabiy beqaror bola – Xuper Kingshouga to‘xtovsiz zo‘ravonlik qila boshlaydi. Xuper Kingshouning kuchsiz tomonlarini, nimalardan qo‘rqishini tez aniqlaydi va Kingshouni ta‘qib qila boshlaydi. K.Vulf ta‘riflaydiki, Xuper dastlab Kingshou qo‘rqqanda uning o‘zini tutishini ko‘rishga bo‘lgan qiziqishini qondirish uchun eksperiment sifatida zo‘ravonlik qiladi. Lekin keyinchalik Xuper zo‘ravonlikni sevimli mashg‘ulotiga aylantiradi, Kingshouni qo‘rqitish rejalarini tuzib, o‘zidan faxrlanib, xursand bo‘ladi. U hech qachon Kingshouga qanchalik darajada nafaqat jismoniy, balki psixologik azob berganini o‘ylamaydi. Xuper judayam zo‘r boshqaruvchi, uning Kingshouga hujumlari puxta o‘ylangan va mukammal tashkillashtirilgan edi [Karakaş, 2015]. U qanday qilib maksimal darajada natijaga erishishni, qanday qilsa Kingshouga oliy tarzda zarba berishni bilar edi. Bunga asardagi qarg‘a bilan bog‘liq sahnalar yaqqol misol bo‘la oladi. Xuper Kingshouning qarg‘adan qo‘rqishini bilib olgach, uning xonasiga yarim tunda o‘lik qarg‘aning ichini to‘ldirib tashlab qo‘yadi va Kingshou bunga qarshi qanday javob qilishini eshik ortidan kutib turadi: *“Kingshaw lay stiff, and did not scream, did not make any sound at all. He was dry and faint with fear of the thing, though his brain still worked, he knew who had brought it... Hooper wanted him to be frightened, to scream and cry and shout for his mother. He would not do that. There was nothing, nothing at all, that he could do to help himself”* [Hill, 1970; 37] – *“Kingshou indamasdan turdi, baqirmadi, g‘ing demadi. Ko‘rgan narsasi nima ekanligi haqida umuman tasavvurga ham ega emas edi. Qo‘rquvdan hushidan ketib qolaman deb turardi, lekin hali ham miyasi ishlab turibdi-da, bu noma‘lum narsani kim olib kelganligini tushundi... Xuper Kingshounining juda qo‘rqishini xohladi, qo‘rquvdan baqir-chaqir qilishini, onasining oldiga yugurishini kutgan edi. Kingshou bunday qilmadi. Qo‘rqqanda sodir bo‘ladigan hech narsa Kingshouda sezilmadi, u jimgina azoblendi”* (Tarjima maqola muallifiga tegishli – D.T.).

Bu voqea qo‘rqinchli “o‘yin”ning boshlanishi edi. Xuperda axloqiy chegara yo‘q edi, ilgarigidan ham ko‘ra ko‘proq azob berish uchun yangidan yangi zo‘ravonlik qilish usullarini o‘ylab topdi. Kingshouda ham bir necha marta Xuperdan qasos olish uchun sharoit paydo bo‘ldi. Bu birinchi marta Xeng o‘rmonida Xuper momaqaldiroqdan qo‘rqishini bildirib qo‘yganda sodir bo‘ladi. Kingshou paytdan foydalanib liderlikni to‘liq qo‘lga olsa bo‘lar edi, lekin nafsini yengib, Xuperi tinchlantirdi, yupatdi. Yana shunday holat Leydel qal‘asining devorida sodir bo‘ladi. Kingshou devorga, daraxtlarga chirmashib chiqishga usta edi va devorni qiyinchiliklarsiz zabt etadi. Bu vaqtda Xuper Kingshouga hasad qilib, devorga chiqa olishini ko‘rsatib qo‘ymoqchi bo‘ladi, lekin devor ustidan tusholmay qolib ketadi va tabiiyki, Kingshouning bevosita yordamiga muhtoj bo‘lib qoladi: *“He thought suddenly, I could kill him, I could make him fall off just by looking at him, or touching him, or telling him to take one step the wrong way. I am the King, I am the King, there is nothing I can’t ask him for, nothing*

he won't promise me, nothing I can't do to him. Up here, I'm the King" [Hill, 1970; 153] – “Kingshou birdan o‘ylab qoldi, men uni o‘ldirishim mumkin, bir qarashda uni yo‘qolishiga sabab bo‘lishim mumkin yoki turtib yuborsam ham bo‘ladi, uni noto‘g‘ri qadam tashlashga undasam va u yiqilib tushsa, undan butunlay qutulaman. Men qal‘a qiroliman, men qirolman, bu yerda u menga yomonlik qilolmaydi, unga meni tinch qo‘yishi uchun yalinmasam ham bo‘ladi. Bu yerda men qirolman” (Tarjima maqola muallifiga tegishli – D.T.).

Biroq qasos olish imkoniyatidan Kingshou foydalanishni xohlamadi, Kingshou doim boshqalarning qiynalishiga, azoblanishiga sabab bo‘lish noto‘g‘ri deb o‘ylar edi. Kingshouga zo‘ravonlik qilish bilan bir vaqtda Xuper doim uyga egalik hissi uchun kurash olib boradi, garchi Kingshou hech qachon uyga egalik qilish haqida o‘ylamagan, xayolining bir chetiga ham keltirmagan edi [Reynolds & Noakes, 2003; 7]. Xuper hamma narsani o‘ziniki bo‘lishini xohladi, Kingshouga tegishli bo‘lgan narsa va shaxslarni ham tortib olib, ularga faqat o‘zi egalik qilishga harakat qiladi. Birinchi Xuper Uaringsga to‘liq egalik qilishga erishdi, keyin Xeng o‘rmoni, undan so‘ng Kingshouning sevimli joyi, shu bilan birga, qishloqdan yagona do‘sti Fildingni ham o‘z hisobiga qo‘shishni rejalashtiradi. Xuper darrov ruhiy ta‘sir orqali Fildingning ishonchiga kiradi. Kingshouda Xuper tomonidan o‘g‘irlanmagan yagona yaqin kishisi – bu onasi edi. Baxtga qarshi, bu borada ham Xuperning omadi keldi. Yelena Kingshou Jozef Xuper bilan to‘yiga tayyorlanish bilan band bo‘lib, o‘g‘li bilan kamdan-kam dildan suhbat quradigan bo‘ladi, uning Xuper bilan munosabatlari natijasida ruhiy azoblanayotganligini anglab yetmadi, afsuski, Yelena Kingshou ko‘proq Xuperning yolg‘onlariga ishonar edi. S.Umenay takidlaydiki, Kingshouning o‘z joniga qasd qilishi Kingshouning mutlaq g‘alabasi edi [Umenai, 2012; 4-5]: “*When he saw Kingshaw’s body, upside down in the water, Hooper thought suddenly, it was because of me, I did that, it was because of me, and a spurt of triumph went through him*” [Hill, 1970; 222-223] – “*U Kingshouning tanasini suvda teskari qalqib turganini ko‘rganda o‘yladiki, u meni deb o‘ldi, men uddaladim, u men sababli o‘ldi, g‘alaba Xuperning tanasi bo‘ylab ufurdi*” (Tarjima maqola muallifiga tegishli – D.T.). Bola Xuperning ongi va o‘zini tutishi hech qanday ijtimoiy normalarga to‘g‘ri kelmaydi. Uning boshqalarni boshqarishga bo‘lgan xohishi beg‘uborligidan ustun keldi, uning egalik hissi va tazyiq o‘tkazishi undagi yovuzlik xarakteriga ishora qiladi.

Qo‘rquvlar

Bolalar dunyosi muammolar, umidsizliklar, g‘am va tashvishlarga, baxtsizliklarga to‘la, lekin bu doim ham yaqqol ko‘zga tashlanavermaydi. Bolalar ba‘zan mantiqsiz va o‘rinsiz ravishda qo‘rqadi, ba‘zan esa tushunarli va o‘rinli holatlarda qo‘rqadilar [Boronska, 2008]. Bunday holatlar S.Hillning “*I’m the King of Castle*”, “*Friends of Miss Reece*”, “*The Elephant Man*” kabi asarlarida ham uchraydi.

Bolalar qo‘rquvi “*I’m the King of the Castle*” asardagi markaziy mavzu hisoblanadi. Ikkita bola qahramonda ham qo‘rquv bor. Kingshou juda ko‘p qo‘rquvlar og‘ushida edi, ba‘zan qo‘rquvlar uni yutib yuborardi, ya‘ni u ularga qarshi ba‘zan sokin tarzda qolish orqali javob qaytarishdan boshqasiaga yaramay qolar edi. Asar o‘quvchi Kingshou qo‘rquvlarini birga his qildirish darajasidagi tasvirlarga boy. Masalan, qizil

xona (Red Room)da Xuperning bobosi jamlagan hasharot-kuyalar kolleksiyasi bor edi. O'liklardan qo'rqadigan Kingshou bir marta Xuper tomonidan bu xonada o'lik hasharotlar bilan birga qamab qoyiladi. Bu yerda Xuper oldindan tayyorlab qo'ygan ham o'lik, ham tirik qarg'alar bor edi. Bundan tashqari, Xuper bir marta Kingshouni og'ilxonaga ham qamab qo'yadi va tashqaridan Kingshouning yordam so'rab yalinishini kutib turadi: *"He wanted to stop Hooper from telling him anything else, his mind was working and working terrifyingly, on everything he had said, as he sat in the darkness. But there wasn't any way to do it, and he stifled his muscles, forcing himself not to scream out in fear and rage and misery, not to say, Oh please, don't, please, please, Oh God, I don't want to go anywhere with you, I'm scared, I'm scared, I want to get out of this bloody, bloody shed"* [Hill, 1970; 144-145] – *"U Xuperning zo'ravonligini shunchaki tugashini xohladi. Mutlaq qorong'ulikda uning ongi bazo'r ishlayotgan edi, u hali ham pala-partish tarzda bo'lsa ham nimalarnidir o'ylay olardi. U hech narsa qila olmas edi, mushaklari tarang bo'ldi, o'zini bu dahshatli holatda, jazavada baqirmaslikka majburladi: Ey Xudo, meni o'zing bilan olib ketma, qo'rqib ketyapman, qo'rqib ketyapman, bu yerdan chiqib ketishni xohlayman"* (Tarjima maqola muallifiga tegishli – D.T.).

S.Hill Kingshouni faqat qo'rqqoq bola sifatida tasvirlamaydi. Kingshou ba'zan jasorat ham ko'rsatadi, Xuper tomonidan zo'ravonlikka uchraganda ham, o'zi bu muammoni hal qilishga harakat qiladi, faqat bir martagina onasiga yugurib boradi. Aslida esa Xuperning haqiqiy qo'rqqoq ekanligi Xeng o'rmonida bo'lgan sahnalarda ko'rinadi. Momaqaldiroq bo'lganda talvasaga tushib qoladi, Leydel qal'asining devorida ham balandlikdan qo'rqishi oydinlashadi. Bu jabhalarda Kingshou inson bo'lib qolishni afzal ko'radi, ya'ni Xuperdan qasos olishni tanlamaydi. Asar davomida o'quvchi Kingshouga xos qobiliyatlarning ham guvohi bo'ladi. K.Vulf ta'kidlaydiki, Kingshou o'zining qilgan ishlaridan ba'zan g'ururlanadi, lekin bunday o'zini o'zi tabriklash, ulug'lash holatlarining umri qisqa edi, chunki butun vujudini qo'rquv tez egallab olar edi [Woolfe, 1997; 60]. O'ziga bo'lgan ishonchning kamligi va o'zini doimiy xavf-xatar ostida his qilishi oilaviy kelib chiqishiga bog'liq edi. Kingshou yolg'iz farzand bo'lib, otasiz voyaga yetkazilayotgan edi. Xuper bilan bitta maktabda o'qish kelajagi, u bilan bitta uyda yashash qo'rquvi, tinimsiz zo'ravonlik, jismoniy tajovuz, onasi tomonidan mehrning berilmasligi Kingshouda dahshatli fikrning paydo bo'lishiga olib keldi. O'z joniga qasd qilish esa bunday chidab bo'lmas azobdan qutulish uchun yagona yo'ldek tuyildi. Bunday shafqatsiz yakun uchun S.Hill adabiy tanqidchilar tomonidan tez-tez tanqid qilib turiladi.

"I'm the King of the Castle" bolalar qo'rquvini, baxtsizligini, ruhiyatini og'riqli tarzda, o'quvchining yuragiga yetib beradigan darajada ta'sirli qilib yozilgan asardir [Karakas, 2015]. Shunga o'xshash parallel mavzu va his-tuyg'ular tasvirini *"The Elephant Man"* ham asarida uchratishimiz mumkin. Protagonist Uilyam va Kingshoularning umumiy tomonlari talaygina. Uilyam ham sezgir, ko'ngli bo'sh bola, uning do'stlari kam edi, o'zini ko'pincha yolg'iz his qilardi. O'ziga bo'lgan ishonchning yetishmasligi, uyatchanglik, muloqotga no'noqlik va tortinchoqlik ham bu ikki qahramonda kuzatiladi. Yana bir o'xshash jihat – bu ikki qahramonning ham

boshqa bolalar orasida o'zga sayyoralikdek his qilishlaridir. Ikki qahramonda ham chin do'st yo'q edi. Natijada Uilyam ham Kingshou his qilgan tuyg'ularni boshidan kechiradi. Masalan, Uilyam xohish-irodasiga qarshi ravishda mehmonxonada boshqa bolalar bilan ziyofatda qatnashish uchun jo'natiladi. U bu ziyofatda hech kimni tanimaydi va ziyofat Uilyam uchun dahshatli tushga aylanadi: *"William sat quietly. Every now and then he closed his eyes, wishing for the curtains to be opened again and for the ordinary January daylight to flood the room... He had thought that he would die of fear, high up in the clutch of the elephant man. But he had not died, and now he would have to live with the memory of it. He could still hear the music and the squalling of the others pounding in his ears. He came up to a long corridor and was frightened by his own tense and white-faced reflection. The Elephant man could be following him, might be anywhere at all"* [Hill, 1971; 11–13] – *"Uilyam jim o'tirardi. Onda-sonda ko'zini biroz muddat yumib, odatdagi yanvar kunlaridan biriga tushib qolishni orzu qildi... Animator fil odam uni tepaga qo'lida ko'targanda qo'rquvdan o'lib qolaman deb o'yladi. U tirik qoldi, lekin bu qo'rqinchli xotira bilan butun umr yashashi kerak. Ziyofat musiqasi hali ham eshilib turar edi, ishtirokchilar qiy-chuvi qulog'ida jaranglab turgan edi. U uzun koridorga chiqib oldi va oynada o'zining aksini bexosdan ko'rib yuragi tushib qoldi. Fil odam qayerdadir shu yerda uning izidan kelayotgan bo'lishi ham mumkin"* (Tarjima maqola muallifiga tegishli – D.T.).

"Friends of Miss Reece" asarida yosh bolakay oilaviy munosabatlardagi ziddiyatlardan aziyat chekadi, unga ota-onasi tomonidan yetarlicha g'amxo'rlik ko'rsatilmaydi. U tez-tez qariyalar uyida yashovchi qarindoshiga tashlab ketiladi. Bunday holatlar uning bolalik tafakkurini muddatidan oldin kattalarning tafakkuriga yaqin kelib qolishiga olib keldi. E'tiborsizlik va pisand qilinmaslikdan aziyat chekkan bolalar katta bo'lganda boshqalarga ishonchsizlik bilan munosabatda bo'lishadi [Vinkers et al., 2011]. Kattalar hayoti, xuddi o'zi ko'pincha qariyalar uyida duch kelganidek kasallik va o'lim, isitma, ichki a'zolarining yaxshi ishlamay qolishi kabi noxushliklardan iborat azob-uqubat unga hamrohlik qilmoqda edi. Shunisi aniqki, bu joy yosh bolalar bo'lishi kerak bo'lgan joy emas edi. Hayratlanarlisi shundaki, bolakay bu yerdagi qariyalar va kasallar bilan do'st tutinadi. Ulardan biri, o'limi muqarrar bo'lgan, na yura oladigan, na gapira oladigan Ris xonim edi. Shunga qaramay, bolakay uning oldiga tez-tez boradi, uning yonida qancha ko'p vaqt o'tkazgani sari, u o'layotganda yonida bo'lib qolish qo'rquvi ham oshib borar edi: *"So she was not dead, it was all right. He thought about how he could avoid having to sleep tonight in the attic room, how he might pretend to be ill, so that Aunt Spencer let him stay on the couch in her own room. Tomorrow, his father and mother would come back from Lincolnshire, nothing would happen, nobody should know"* [Hill, 1971; 125] – *"Xo'sh, u hali o'lmadi, bu yaxshi. U qanday qilib cherdakda bugun uxlashini oldini olish haqida o'yladi. Balki o'zini kasaldek tutsa, Spenser xola o'zining krovati yonida uxlashga ruxsat berar. Ertaga ota-onasi Linkolnshirdan kelib, bolani olib ketar, hech qanday yomon narsa sodir bo'lmasinda"* (Tarjima maqola muallifiga tegishli – D.T.). S.Hill qahramonlarning qo'rquvlarini tez-tez tasvirlashga harakat qiladi va bunga alohida e'tibor qaratadi. Bundan ko'zlangan maqsad esa qisman bo'lsa ham bolalar

qo‘rquvlarining mavjudligini isbotlash, boshqa tomondan, ota-onalarni bolalar qo‘rquvlaridan ogoh qilish va bu qo‘rquvlarning qanday oqibatlar keltirib chiqarishini ularga yetkazishdir.

Yolg‘izlik va izolatsiya (atrofdagilardan uzoqlashish, ajralib qolish)

Mehr-muhabbatning yetishmasligi, g‘amxo‘rlik va e‘tiborning yo‘qligi, eng oxirgi darajadagi izolatsiya tuyg‘usi S.Hill obrazlarining umumiy kechinmalaridir. Ularning tuyg‘ulari bilan boshqalarning ishi bo‘lmasligi esa ularda bundan ham og‘ir va jiddiy hissiy tartibsizliklarning paydo bo‘lishiga o‘z hissasini qo‘shadi. Bular ota-onalarcha g‘amxo‘rlikning yetishmasligi yoki, umuman, yo‘qligi natijasida kelib chiqadi. Masalan, *“Friends of Miss Reece”* hikoyasida ota-ona yagona farzandini ortiqcha yuk deb hisoblaydi. Ular bola bilan vaqt o‘tkazishdan ko‘ra ziyofatlarda vaqtichog‘lik qilishni afzal ko‘rishadi. Bunday holatlarda ular farzandlarini qariyalar uyida yashovchi Spenser xola yoniga tashlab ketishadi. Bu yerda u kechani yolg‘iz o‘zi cherdakdagi kichkina xonachada o‘tkazishga, yarim kechalari qo‘rqib uyg‘onib ketishiga to‘g‘ri kelar edi. Ba‘zan u ota-onasiga, qariyalar uyiga bormayman, deb xarxasha qilganida, ular bolani eshitishmas, eshitsalar ham eshitmaslikka harakat qilishar, yana ham to‘g‘rirog‘i, o‘z farzandlarini tushunishga ham harakat qilishmas edi.

“The Albatross” hikoyasida aqli zaif bolakay Dunkan, oldingi hikoyaga qarama-qarshi tarzda, nogiron onasidan qutulishga harakat qiladi. Chunki Dunkanga onasining muomalasi, munosabati umuman yoqmas edi. Ona doim o‘g‘lining qobilyatlarini pisand qilmas, to‘xtovsiz unda aqliy nuqson borligini eslatar edi, shunday qilib bolaning o‘ziga bo‘lgan ishonchini tushirardi. Syuzan Skutti aytadiki, emotsional zarba jismoniy zarbadan ham battarroq ta‘sir qiladi [Scutti, 2015]. U boshqa qishloq bolalariga, ayniqsa, Ted Flintga qo‘shilishni, ular bilan birga o‘ynashni xohlar edi, lekin ular Dunkanni rad qilishar edi. Bunday muvaffaqiyatsizliklar, yolg‘izlik, ajratib qo‘yilish, rad etilish hamda onasi tomonidan kamsitilish holatlari uning o‘z onasini okeanga nogironlik aravachasi bilan birga itarib yuborishdek qat‘iy va og‘ir qarorga olib keldi.

Garchi bolalar ota-onasi tomonidan ko‘rsatiladigan mehrga zor bo‘lsa ham, bu ularning ham mehrsiz ekanligini tasdiqlamaydi, bu holat Kingshouning o‘zini qanday tutishida ko‘rinadi. O‘zining hech qachon boshqalar tomonidan himoya qilinmaganligiga qaramasdan, bir necha marta Xuperi tashqi omillardan himoya qiladi, mehr ko‘rsatadi va yaxshilik qiladi. U hayvonlarni yaxshi ko‘radi, ularni his qiladi, odamlarga yaxshilik qilishni xohlaydi. Kingshou mehribonligi bilan Xuperdan keskin farq qiladi: *“Hooper had stopped. His eyes were open and he looked around widely for a moment, then he began to cry. Kingshaw moved up to him again. “Listen, it’s all right, I’m awake as well”. Hooper looked at him, uncertainly, as if puzzled. Then he lay down again, and put his hand up to his eyes”* [Hill, 1970; 117] – *“Xuper qotib qoldi, ko‘zlari katta-katta ochilgan, atrofga alang-alang qarardi, keyin birdan yig‘lab yubordi. Kingshou Xuperga yaqin keldi “Meni eshit, hammasi yaxshi bo‘ladi, qo‘rqma, men shu yerdaman, men ham uyg‘oq edim, men ham momaqaldiroqni eshitdim”. Xuper unga qaradi, shubhasiz, Kingshoudan hayratlandi, fikrlari chalkashdi. U qayta*

yotdi va qo'li bilan ko'zlarini yopib oldi" (Tarjima maqola muallifiga tegishli – D.T.).

Xuper hech qachon bunday yo'l tutmadi, balki uning Kingshouga zo'ravonligi kuchaygandan kuchaydi. Shunga o'xshagan hissizlik S.Hillning yana bir hikoyasida aks etadi. "The Badness within Him" asarida protagonist Kol ismli bola oilasidan begonalashadi, hayotida qandaydir katta o'zgarish qilishni xohlaydi. U opa-singillaridan nafratlanadi, ota-onasiga bo'lgan iliq his-tug'ularining mavjudligiga ham shubha qiladi. U ba'zan o'ylab qoladi: "*Col said, do I like my father? And thought about it. And did not know*" [Hill, 1971; 160] – "*Dadamni yaxshi ko'ramanmi, yo'qmi, o'ylab turdi: Bilmadim*" (Tarjima maqola muallifiga tegishli – D.T.). Kolning hayotidagi qanaqadir o'zgarish haqidagi orzusi ko'p o'tmay amalga oshdi, dadasi okeanda cho'kib o'ldi. Bu vaqtda Kol sokin holatda otasining okeanda cho'kib ketayotganini, jon holatda yordam so'rab baqirayotganini kuzatib turdi, yordam berish, yordam chaqirish tugul joyidan qilt etmadi: "*Now, he was not afraid. His father's skin was oddly pale and shiny. He stared, trying to feel some sense of loss and sorrow. He had watched his father drown, though for a long time he had not believed it, the water had been so entirely calm*" [Hill, 1971; 163] – "*Endi u qo'rqmaydi, otasining tanasi juda g'alati bo'lib oqarib ketgandi, yaltirab turardi. Otasiga qarab u yo'qotish hissini tuyishga, o'zini g'amgin his qilishga harakat qildi. Otasining cho'kayotganini ko'rdi, lekin suv bu vaqtgacha juda sokin edi*" (Tarjima maqola muallifiga tegishli – D.T.). Kol o'z ichida qandaydir yomonlik borligiga amin edi, otasining o'limiga esa ilgariroq hayotida o'zgarish sodir bo'lishini xohlaganligi sabab bo'ldi deb hisobladi. Otasining o'lgan tanasiga yaqin turib, yig'lab yubordi. Bu hodisa Kolning ichidagi barcha yomonliklarga qaramasdan, unda qandaydir boshqa his-tuyg'ular ham borligini isbotlaydi.

Oilaviy munosabatlar

G.Dib o'zining "*I'm the King of the Castle*" haqidagi maqolasida yozganidek, ota-onalar farzandlari hayotida muhim va salmoqli rol o'ynaydi [Deeb, 2021; 4]. Ular farzandlarining himoyachi posboni, yangi narsalar haqida xabar berib o'rgatadigan ustoz hisoblanadi. O'z o'rnida ota-onalar hurmat qilinadi va ularga ergashiladi. Ota-onalardan an'anaviy tarzda bolalari o'zlarini xavfsiz va qulay his qiladigan, mehr-muhabbat ulashiladigan uylarini yaratishlari kutiladi. Ammo bunday kutilgan oila namunasi doim ham yaratilavermaydi, shunday holatlar tasviri S.Hill asarlarida kuzatiladi. Bunday mavzu ilk marotaba yozuvchining "*A Change for the Better*" asarida paydo bo'ladi. S.Hill bu asarda ona-o'g'il munosabatlaridagi qiyinchiliklarni tasvirlaydi. 11 yoshli ko'ngilchan, aqlli bola Jeyms Faunt buvisi va onasi bilan yashaydi, tez-tez otasini sog'inib turadi. Yolg'iz ona bilan otasiz ulg'ayish, albatta, bola xarakteriga o'zining salbiy ta'sirini o'tkazadi. Onasi Dedr Faunt o'z oilaviy tadbirkorlik ishlari bilan bo'lib, oila tebrataman deb, o'g'lining istaklari, ehtiyojlarini qondirish haqida o'ylashni unutib qo'yadi. Jeymsga g'amxo'rlik qilish vazifasini, asosan, uning buvisi bajaradi. Asta-sekinlik bilan Faunt xonim onalik rolini butkul yo'qotadi va farzandi bilan o'rtasida kelishmovchiliklar paydo bo'ladi. Jeyms onasini hurmat qilmay qo'yadi. Onasidan ko'ra faqat o'ziga suyanadigan bo'lib qoladi. Onasi ko'zi ochilib, buni tushunganida esa bu holatga qarshi qandaydir chora ko'rish uchun juda kech bo'lgan bo'ladi: "*She wanted to walk with him down the avenue*

and have him tell her interesting things about his day, and Westbourne should see them together and say, "There is Mrs Deidre Fount and her growing son. How well they look together!" For she had realized that she did not know the boy at all, had never known him, he was stranger to her and she needed to be reassured of their relationship. He was moving away, already he was eleven, there seemed to be so little time" [Hill, 1969; 51] – "U o'gli bilan xiyobonda sayr qilishni, qiziq voqealarni aytib berishni xohladi, Vestburn ahli ularni ko'rib "Bu Dedr Faunt va uning ancha ulg'ayib qolgan o'g'li. Ularning birgaligi qanday yaxshi!" deyishlari kerak edi. Ona angladiki, o'g'lini yaxshi bilmaydi, hech qachon bilmagan ham, hozir o'g'li unga begonadek, ona munosabatlarga oydinlik kiritib olishi kerak. Bolakay esa tez katta bo'lyapti, hozir 11 yoshda, onada juda ham kam vaqt bor" (Tarjima maqola muallifiga tegishli – D.T.).

Ona o'g'lining bunday bo'lib qolganligida otasining yo'qligini ro'kach qiladi, o'zining aybini esa tan olmaydi. U o'g'li bilan muammolarni ochiqchasiga muhokama qila olmas edi. O'g'li bilan hech til topisha olmaydi, o'g'lining orzularini tushunmaydi, oralaridagi begonalik masofasi esa tadrijiy ravishda kundan-kunga kattalashib bordi. Jeyms va buvisi o'rtasidagi munosabat ham havas qilarli holatda emas edi. Har kuni arzimagan narsalardan ham janjal va munozaralar ko'tarilib turar edi. Umuman olganda, tarang muhit bola tarbiyalash uchun munosib emas edi. Shubhasiz, bu holatlar bola xarakteriga salbiy ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Jeymsning onasi bilan masofa saqlashi bunday muhitga unda kechgan tabiiy javob vazifasini o'tadi. Yana shunisi tabiiy ediki, Jeyms buvisi to'satdan vafot etganda, unda hech qanday tashvishlanish, qayg'urish, xafa bo'lish holatlari kuzatilmaydi. Jeymsning bu uydan doim maktab-internatga qochib ketishni orzu qilishini ham tushunsa bo'ladi, chunki u hayotini to'liq o'z qo'liga olishni xohlar edi.

"A Change for the Better" asarining chop qilinishidan ko'p vaqt o'tmay, S.Hill ayni mavzuga yana bir bor "I'm the King of the Castle" asarida qo'l uradi. Asarning boshlanishidanoq Uaringsda Xuper mehrga muhtoj bo'lib o'sayotgan sahnalarni ko'rishimiz mumkin. Bu esa Xuperning xulq-atvorida namoyon bo'ladi. Jozef Xuper va Edmund Xuper orasidagi ota-bola munosabati juda sovuq va masofali edi, asosan, ota maslahat beradi yoki maslahat so'raydi, tanqid qiladi, o'g'lidan o'zini ma'lum bir oilaviy tartib qoidalariga ko'ra tutishini so'raydi. Yana bir jiddiy faktor bu janob Xuper bolaligining ham baxtsiz o'tganligidir. Shuning uchun ham u o'zining bolalikda boshidan o'tkazganlaridan xulosalar qilib, o'g'li bilan barqaror munosabatlar o'rnatishga, unga ko'proq mehr berishga harakat qilishi kerak edi aslida. Hammasidan ham u o'g'luga baxtli va xavf-xatardan holi bo'lgan joyni ta'minlab berishi kerak edi. Asarda Xuperlar oilasi bir necha avlodlar davomida ota-onalik burchi ado etilmagan oilaning yaqqol namunasi sifatida tasvirlanadi: "I suppose you quarrelled with grandfather then". Joseph Hooper sighed. "That is not the sort of thing to say, it is not something we need be concerned with now". But he understood, looking at the boy, a little of how it had been with his own father, he felt the need to make some kind of reparation. I am not a hard man, he thought, I have more to regret about my own son than he had about me. For he knew that he had failed, from the very beginning,

to ingratiate himself with Edmund” [Hill, 1969; 14] – “Demak, siz ham bobom bilan janjallashgansiz”. Jozef Xuper uh tortdi: “Buni hozir muhokama qilib o‘tirishimiz to‘g‘ri emas”. Lekin ota bolasiga qarab tushindi: kichkinaliga u ham otasi bilan hech til topisha olmasdi. U o‘g‘li bilan qandaydir murosaga kelishi kerakligini, munosabatini to‘g‘rilashi kerakligini angladi. “Men qattiqqo‘l emasman axir”, o‘yladi u. O‘gliga ozroq achindi. Bildiki, eng boshidanoq, Edmund bilan noto‘g‘ri munosabatda bo‘ldi, har bir munozarada zo‘rlilik bilan o‘zinikini o‘tkazdi” (Tarjima maqola muallifiga tegishli – D.T.). Biroq Jozef Edmund bilan qilayotgan barcha xatolarini tushunardi, anglardi, anglagani sari kayfiyati tushardi. K. Vulf yozadiki, Jozef o‘g‘lida odob-axloq, mehr-muruvvat va hamdardlik hislarini rivojlantira olmagan qoniqarsiz ota sifatida taassurot qoldiradi [Woolfe, 1997; 57]. Jozef Xuper ham buni doim tushunib turgan: “Politely, Kingshaw turned his head to look out. Mr Joseph Hooper thought, he is a good deal easier to deal with than my own son, that I must admit: he is quiet and withdrawn, yes, but there does not seem to be anything strange about him, as there has always been with Edmund, and there is constraint between us. He is not a boy who says very much, and yet I think I know his mind, I think I can say that I understand him. He knew how to deal with Edmund, now; firmness, he had decided, firmness and directness, that is that is needed, and then they are happy enough; boys are very simple animals” [Hill, 1970; 195] – “Kingshou astagina boshini ko‘tardi. Janob Jozef o‘yladiki, Xuperdan ko‘ra Kingshouga gap uqtirish osonroq. Men tan olishim kerakki, Kingshou o‘zini bosib olgan bola, ha, u bilan hech qanday muammo yo‘q, lekin Edmund bilan doim muammolar bo‘lgan, o‘rtamizda doim ziddiyat bo‘lgan. Kingshou ko‘p gapirmaydi, lekin uning nimani o‘ylayotganini bilaman, menimcha, uni yaxshi tushunaman. U xulosaga keldiki, Edmund bilan qattiqqo‘lroq, sovuqroq hamda ochiqroq bo‘lish kerak, shu narsa juda muhim, shunda balki ular baxtliroq bo‘ladi, bolalar oddiy yaratiglar-ku” (Tarjima maqola muallifiga tegishli – D.T.).

D. Pakett yozadiki, oilada o‘g‘il tarbiyasida ota alohida o‘rin egallaydi [Paquette, 2004]. Baxtga qarshi, janob Xuper har bir harakatida nohaq edi. U nafaqat otalik rolini ado eta olmadi, balki o‘g‘lining ehtiyojlarini ham noto‘g‘ri talqin qildi. Kingshoular kelishi bilanoq o‘g‘lini unutdi, Uaringsda ayol kishining paydo bo‘lganidan quvondi, faqatgina o‘zining shaxsiy hayoti bilan ovora bo‘lib qoldi. Jozef marhum turmush o‘rtog‘i bilan turmushda ham yetarli mehr ko‘rmadi, chunki Xuper xonim eri bilan doim masofa saqlaydigan, sirli ayol bo‘lgan. Ularning turmushi ham havas qilarli to‘laqonli baxtli oila emas edi. Xuper doim o‘ylardiki, o‘g‘lida mavjud xarakter, o‘zini tutishi, yopiqligi, boshqa odamlar bilan yaqin bo‘la olmasligi onasidan o‘tgan. Xuper xonimning o‘limi aslida bolaning yopiq xarakteriga bir sabab edi, u, shubhasiz, onasini sog‘inadi, onalik mehrini qo‘msaydi.

Kingshou va uning onasi munosabatlariga keladigan bo‘lsak, boshqacharoq holat kuzatiladi. Necha yillardan beri ularning o‘z uyi, muqim turar joyi yo‘q edi. Kingshou xonim o‘zini munosib va ehtiyotkor ona deb hisoblardi. Har kuni bolalar bilan bog‘liq har qanday ko‘ngilbuzarliklarga qaramay, Kingshou xonim Xuperlar uyidan qo‘nim topishga jon-jahdi bilan harakat qilardi. Asar davomida sodir bo‘lgan hech qanday hodisa Kingshou xonimning Uaringsdan muqim qo‘nim topish fikridan

qaytara olmadi. Uning maqsadi asta-sekinlik bilan Jozef Xuper bilan yaqinlashish, uning hurmatiga sazovor bo'lish va shu asnoda u bilan turmush qurish edi. To'laqonli baxtli oila qurish uchun esa Edmund va Charlz rosmansiga do'stlashishi kerak edi. Bu nafaqat uni doimiy turarjoy, moliyaviy xavfsizlik bilan ta'minlardi, balki unga ma'lum bir ijtimoiy maqom va e'tirof berardi. Azaldan murakkaab bo'lgan onabola rishtasi, Kingshou xonimning Uaringsda iliqroq qabul qilinishi uchun Edmund Xuperni o'z og'lidek qabul qila boshlaganda yanayam taranglashdi: *"Now, she thought, I shall be like a mother to Edmund, in so far it is possible, I shall try to make no difference between the two of them, we shall be just like a family"*. – *"U o'yladiki, hozir Edmundga iloji boricha o'z onasidek bo'lishi kerak, ikki bolani ajratmasligi kerak, bir oiladek bo'lish kerak"* (Tarjima maqola muallifiga tegishli – D.T.). Onaning fikricha, Uaringsda o'rnatish imkoniyatlariga hech kim, hech narsa, hech qanday holat rahna solmasligi kerak edi, bolalar orasidagi yaqqol ko'rinib turgan to'qnashuvlarni ham ataylab ko'rmaslikka oldi. Kingshouga onasining Xuperni ustun qo'yganligi, o'g'liga ishonmaganlik holatlarini ochiqchasiga namoyish qilganligi oxir-oqibatda o'z og'lining onasidan butkul begonalashishiga olib keldi. Tadrijiy tarzda Kingshou xonim o'g'lining ishonchini yo'qotdi:

"Is something the matter? Are you all right here?"

"Yes, thanks".

"You would tell Mummy, wouldn't you? It is probably such a tiny thing bothering you, we could clear it up at once, and everything would be quite all right again" ... He could never begin to tell her. Did not want to" [Hill, 1970; 134-135].

Tarjimasi:

"Hech qanday muammo yo'qmi? Bu yerda hammasi yaxshimi?"

"Ha, rahmat".

"Oyingga aytsang bo'ladi, to'g'rimi?" Zarradek muammo tug'ilsa, men bexabar qolib ketmay, aytsang, birdan bartaraf etamiz, hammasi o'z o'rniga tushadi... Bola hech qachon onasiga ko'ngil yormadi, xohlamadi" (Tarjima maqola muallifiga tegishli – D.T.).

Shunga qaramay, Kingshou xonim hech qachon o'g'liga bo'lgan munosabatidagi xatolarni anglamadi. Vaqti-vaqti bilan onalik mehrini ifodalash uchun og'lini "bolalarcha" erkalab qo'yardi, lekin Kingshou buni yomon ko'rardi. Bundan tashqari, o'g'lining suvda qalqib turgan murdasini ko'rganda, o'quvchida nafrat uyg'otadigan befarqlikni kuzatishimiz mumkin: *"Now, it's all right, Edmund, dear; everything is all right, Mrs Helena Kingshaw put an arm out towards him, held him to her. I don't want you to look, dear, you mustn't look and be upset, everything is all right"* [Hill, 1970; 223] – *"Xuperni yupatib "Endi hammasi yaxshi, Xuper, asalim", Yelena Kingshou xonim qo'lini yelkasiga qo'yib o'ziga tortdi. "Sen qarama bunga, asalim, sen qaramasliging kerak, xafa bo'lma, hammasi yaxshi bo'ladi"* (Tarjima maqola muallifiga tegishli – D.T.).

S.Hillning maqsadi ota-ona va farzandlar orasidagi noloyiq munosabatlar ularning tarbiyasi va o'zini tutishiga salbiy ta'sir o'tkazishiga urg'u berib, hayotdagi

haqiqiy ota-onalarga saboq berish edi [Reynolds & Noakes, 2003]. *“I’m the King of the Castle”* asarida baxtli va baxtsiz oilani zidlantirish texnikasini *“The Badness within Him”* asarida ham uchratish mumkin. Protagonistning baxtsiz va notinch oilasi uning do‘sti bo‘lmish Mark Shvartzning baxtli oilasiga zidlantiriladi. Jeym do‘stining oilasini ko‘rib, aslida, normal oila qanday bo‘lishi kerakligi haqida bir qadar tasavvurga ega bo‘ladi. Jeymning onasi bilan bir hafta chet elda dam olib kelishdan ko‘ra do‘stining oilasi bilan birga qolishni xohlaganligi onasini juda hayratlantirdi. Bolakay do‘stining oilasi bilan o‘zini juda xavfsiz, ishonchli his qiladi. Ular bilan bo‘lsagina oilasidagi muammolar haqida unutadi.

Oiladagi muammolar natijasida kelib chiqishi mumkin bo‘lgan tragediyalar *“The Badness within Him”* asarida yaqqol ko‘rinadi. Oilasidagi munosabatlar haqida ma‘lum bir tushunchaga ega bo‘lmagan bosh qahramon, aslida, oila a‘zolarini yaxshi ko‘radimi yoki yo‘q – o‘zi bilmas edi. Uning shubhasi otasi okeanda yordam so‘rab cho‘kib ketayotganda, o‘g‘li qirg‘oqda jim qarab turganida o‘z isbotini topdi: u otasini shunchaki yaxshi ko‘rmaydi.

Bola tomonidan yuz bergan yana bir dahshatli xulqni tasvirlaydigan hikoya *“The Albatross”* hisoblanadi. Onasiga bo‘lgan nafrati tufayli aqli zaif Duncan ismli bola onasini uning nogironlar aravachasi bilan okeanga itarib yuborish orqali o‘ldirishga qaror qiladi. S.Hill oila masalalarini muhokama qilishni *“The Elephant Man”* va *“Friends of Miss Reece”* asarlarida ham davom ettiradi. Markaziy mavzu ota-onalarning mehri, e‘tibori, g‘amxo‘rligining yo‘qligi bo‘lib qoldi. Hikoyada isbotlanganidek, bolaga qarash uchun kimnidir yollash doim ham yaxshilik bilan tugamaydi. Umuman olganda, enagadan onaning o‘rnini har jabhada, jumladan, tarbiyada, sayr qilganda, ovqat, kiyim borasida bosish kutiladi [Elder, 2019]. Uning enagasi Nensi Foset, asosan, o‘zining sevgilisi bilan, o‘zining muammolari bilan band bo‘lib qoladi. Ko‘p vaqtlarda Uilyam yolg‘izlanib qoladi yoki e‘tibordan chetda qoladi. Shunga o‘xshab, *“Friends of Miss Reece”*dagi bola ham bu holatdan aziyat chekadi. Kattalar, asosan, o‘zlarining shaxsiy-ijtimoiy hayoti bilan band bo‘ladilar. Xulosa qilib aytganda, S.Hill oilaning muhim ekanligini ko‘rsatishga harakat qiladi, ayniqsa, ota-ona va bolalar o‘rtasidagi munosabatlarga urg‘u beradi. Fojiali yakunlar, achinarli hayot voqealari, bola tarbiyasidagi no‘noqliklarning dahshatli oqibatlarini tasvirlagan hikoyalari orqali S.Hill o‘zaro munosabat va hurmatning qay darajada muhimligini isbotlaydi va ularning baxtli, tinch, xotirjam bolalarni voyaga yetkazishda asos bo‘lishini ta‘kidlaydi.

Yovuzlik

Maqolaning dastlabki qismida bola obrazi va bolalik haqidagi nazariyalarning tarixiy rivojlanishi haqida gapirganda, bolalar bilan sodir bo‘lgan yovuzlik, zo‘ravonlik, buzg‘unchilik, dilozorlik holatlari tasvirlangan asarlar juda ko‘p yaratilgani to‘g‘risida yozdik. Ularning aksariyatida bolalarga aziyat kattalar tomonidan yetkaziladi. S.Hill asarlarida esa bolalarning o‘zlari yo boshqa bolalarga yo kattalarga yo o‘z ota-onalariga yomonlik qiladilar. Aynan mana shuning uchun ham S.Hill asarlari alohida tadqiq qilinishi lozim. Bolalardagi yovuzlik haqida gapirganda, asosan, *“I’m the King of the Castle”* asariga murojaat qilamiz. Asar qahramoni Xuper psixopat (asabiy va

jahldor) bola, u Charlz Kingshouni har qanday yo‘l bilan tizimli tarzda azoblaydi. Yovuzlik turli usullarda amalga oshiriladi, xafa qiladigan, ta‘qib qiladigan xatlar, goh og‘ilxona yoki ko‘rgazma xonasiga qamab qo‘yish, goh Kingshou haqida boshqalarga yolg‘on gapirish va unga barcha aybni to‘nkash kabilar:

“The voice was somewhere at the back of the shed, detached and peculiarly muffled behind the tin walls. There was a faint scrabbling sound, up near the roof.

“Kingshaw...”

Hooper. Kingshaw got up slowly. But he did not go any nearer to the voice.

“What are you doing?”

He waited, silent, scarcely breathing.

“Kingshaw?”

“Bastard”.

Pause. More scrabbling. Hooper was at the back of the shed somewhere. He laughed.

“Aren’t you scaredy, all by yourself in the dark, dark, dark?” [Hill, 1970; 141-142].

Tarjimasi:

“Ovoz og‘ilxonaning qaysidir tomonidan kelayotgandi, tunuka devorlar ortidan masxara qiladigan ovozlari kelib turardi. Uning ovozi tunuka og‘ilxona devorlariga urilib dahshatli aks-sadolar berardi.

“Kingshou”

Kingshou asta o‘rnidan turdi. Lekin u ovoz tomonga qarab harakat qilishni xohlamadi.

“Nima qilayapsan?”

Kingshou kutib turdi, zo‘rg‘a nafas olardi.

“Kingshou?”

“Haromining bolasi...”

Bu haqoratdan keyin biroq jimjitlik hukm surdi. U yana ham ovozini balandladi. U devorning ortida edi. U kuldi.

“Sen qo‘rqoqsan, qorong‘uda yolg‘iz nima qilyapsan, qo‘rqoq!” (Tarjima maqola muallifiga tegishli – D.T.).

K. Vulf ta‘riflaydiki, Xuper dastlab sinab ko‘rish uchun Kingshouga zo‘ravonlik qiladi, keyinchalik esa buni kasbiga aylantiradi [Reynolds & Noakes, 2003; 16-17]. Kingshou Uaringsga kelishi bilanoq Xuper unga qarshi urush ochdi, vaholanki, Kingshou hech qanday yomon niyat bilan kelmagan edi. Xuper Kingshouni tezgina mag‘lub qilishni xohlamadi, unga azob berishning yangidan-yangi usullarini o‘ylab topdi. Aynan mana shu topilgan yangi usullardan biri Kingshouga tegishli bo‘lgan narsalarni va shaxslarni birma-bir tortib olish bo‘ldi. Biroq mutlaq g‘alaba Kingshouning o‘z joniga qasd qilganligi edi. Xuper yakuniy g‘alabadan g‘ururlandi, aybi borligini his qildi, lekin undan pushaymon bo‘lmadi, balki g‘ururlandi.

Bolalardagi yovuzlik S.Hillning *“The Albatross”* va *“The Badness within Him”* asarlarida ham kuzatiladi. *“The Albatross”* hikoyasidagi protagonist bola

Duncan nogiron onasining o'limiga sababchi bo'ladi. Unda bunday qilish uchun o'rinli va kuchli motiv bor edi, u mustaqil hayot boshlashni xohladi, boshqalardek yashay olishini isbotlamoqchi bo'ldi. Baxtga qarshi, buni amalga oshirish uchun, eng dahshatli tanlovni qildi. *"The Badness within Him"* asari ham o'xshash yakunga ega. Protagonist otasi vafot etadi, buning sababi bolaning hayotida qandaydir katta o'zgarish bo'lishini xohlaganiga borib taqaladi. Bu asardagi bola yuqoridagi boshqa bolalardan tubdan farq qilardi, uning ota-onasi juda mehrlil va e'tiborli edi, uning opa-singillari bor edi, yolg'iz farzand emas edi. Lekin nima uchundir oilasidan begonalashadi. Shunchaki, u "birozgina tinch-sokin baxtli" hayotidan bezib qolgandi. Uning orzusi otasi suvda cho'kib o'lganda amalga oshdi. Bu ikki asar syujeti bir-biriga o'xshash tarzda rivojlanadi. Ikkita bola ham mavjud hukm surib turgan oilaviy sharoitdan qoniqmaydi, ikkisi ham hayotida katta o'zgarish yasashni xohlaydi. Lekin *"The Badness within Him"* asari Xuper va Duncan obrazlaridan biroz farq qiladi. Xuper va Dunkanda qilgan qilmishlaridan aybdorlik hissi umuman yo'q edi, biroq Kol hikoya so'nggida otasi o'limiga bevosita o'zi sabab bo'lmagan bo'lsa-da, asar boshida hayotida katta o'zgarish bo'lishini xohlaganini asosiy sabab deb bildi va o'zini aybdor his qildi. Asarning nomida aytilganidek, "uning ichidagi yomonlik" oxir-oqibat otasining o'limi bilan bog'liq fojiga olib keldi. Yuqoridagilarning hammasi hisobga olinsa, bolalarda ham yovuzlik mavjud degan xulosa kelib chiqadi.

Umuman olganda, bolalarda yovuzlikning mavjudligi ko'plab savollarni tug'diradi [Tanenhaus, 2008]. Ular nafaqat yovuzlik manbalari haqida, balki bolalarning begunohligini ham shubha ostiga solib qo'yadi. Bolalikka doimo beg'ubor, pok va sof degan ta'riflar beriladi, lekin S.Hill tasvirlagan bolalar bunga mutlaq zid. Asosan, *"I'm the King of the Castle"* asari bolalikning beg'ubor ekanligini shubha ostiga oladi. Azaldan ishoniladiki, bolalar gina saqlashni bilishmaydi, qilayotgan harakatlari nimalarga olib kelishi mumkinligini tushunishmaydi, shafqatsiz bo'la olmaydi. Asarda qahramonning yovuz xarakteri o'quvchini yovuzlik bolalarda juda kam uchraydigan holat ekanligi to'g'risidagi fikrdan qaytaradi. S.Hillning bolalar obrazlaridagi o'ziga xoslik shundan iboratki, ular o'sgan sharoit va ularga bo'lgan munosabat ularning qilmishlariga to'laqonli javobgar emas. Shu nuqtayi nazardan, Xuper qanday sharoitda o'smasin, qanchalik unga mehr yetishmasin, u qilgan qilmishi uchun mutlaq o'zi aybdor.

MUNOZARA

Maqola avvalida ta'kidlaganimizdek, S.Hill bolalar obrazlarini yaratgan boshqa yozuvchilardan farq qiladigan XX asr yozuvchisidir. U bolalarga o'zgacha nigoh bilan qaragan [Sullivan, 1990; 7]. Uning asarlarida bolalar endi mutlaq beg'ubor emas, ular o'z qilmishlari uchun javobgar kattalar singari qaraladi. Tabiiyki, yozuvchi bola obraziga qo'l urgan yagona adib emas. Uilyam Golding ham bolalardagi bir qadar yovuz xarakterlar haqida yozgan. S.Hillning *"I'm the King of the Castle"* asarini Uilyam Golding tomonidan yaratilgan *"Lord of the Flies"* (*"Pashshalar hukmdori"*) [Golding, 1954] asariga qiyoslash mumkin. Ikki asar ham bolalarning beg'uborligi haqidagi fikrni savol ostiga oladi. U.Golding bu asarda bolalardagi yovuz xarakterning

paydo bo‘lish sabablari, uning qanday aks etishi, nimalarga olib kelishini bayon etadi [Kelly, 2000; 85]. Bu ikki asar nafaqat bolalarda yovuzlik va zo‘ravonlik xarakteri mavjudligini ko‘rsatganligi bilan o‘xshash, balki bolalarning liderlik uchun kurashini tasvirlashda ham o‘zaro umumiy jihatlarga egadir [Shklyarenko, 2011]. *“I’m the King of the Castle”*da liderlik uchun kurash bir tomonlama edi, ya’ni faqat Xuper bunga da’vo qildi. Lekin *“Lord of the Flies”*da qahramon bolalar: Ralf ham, Jek ham birdek liderlik uchun kurashadi [Haldar, 2016; 15]. M.Kelli ta’kidlaydiki, *“Lord of the Flies”*da yozuvchi insoniyatning yovuzlik va yovvoyilik tomonlarini bolalar obrazlari orqali ochib berishga harakat qiladi, vaholanki, bu jihat eng mukammal jamiyatlarda ham mavjud [Kelly, 2000]. S.Hill esa faqatgina ayrim bolalar ma’lum bir noqulay sharoit, yoqimsiz oilaviy muhit va munosabatlarning natijasidagina dilozor holatga kelib qolishlariga e’tibor qaratgan. Istisno tariqasida olinadigan bola qahramon esa Edmund Xuper bo‘lib, u nafaqat tashqi ta’sir natijasida, balki o‘zining vijdotsizligi natijasida ham zulmkor bo‘lib qoladi.

Yovuzlikning mutlaq boshqacha va munozarali ko‘rinishini XX asr yozuvchisi Entoni Byordjessning *“A Clockwork Orange”* (*“Soat apelsin”*) [Burgess, 2002] nomli asarida uchratishimiz mumkin. Bu asar o‘smirlar tomonidan amalga oshirilgan zo‘rluk, zo‘ravonlik va yovuzliklar tasviriga to‘la. Protagonist bola Aleks, bir necha marta qonunbuzarliklar qilib qamaladi, axloqni tuzatish maskaniga jo‘natiladi. Lekin bu tadbirlar uni yaxshi inson bo‘lib qayta tarbiyalamadi, balki u yaxshi bo‘lish va yomon bo‘lish tanlovida ikkilanadigan bo‘lib qoladi.

Xullas, XX asrda bolalar asosiy obraz qilib olingan asarlar juda ham ko‘p. S.Hill va U.Golding bolalardagi va insoniyatdagi yovuzlikni jamiyat yoki sivilizatsiya muvaffaqiyatsizligidan kelib chiqqan inson tabiatining “nuqsoni” sifatida tasvirlaydi, ammo E.Byordjess yomonlikni ikkita mumkin bo‘lgan tanlovdan biri deb biladi, chunki yaxshilik va yomonlik uning uchun bir xil qiymatga ega. E.Byordjess uchun eng muhimi yovuzlikning oqibatlari qanchalik zararli bo‘lishidan qat’i nazar, ruhiy erkinlikdir.

XULOSA

S.Hillning bolalik mavzusiga bo‘lgan qiziqishi uning qator asarlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Buning sababi qisman uning shaxsiy hayotida paydo bo‘lgan umidsizliklarni qog‘ozga bitish zarurati bilan izohlanadi, ammo uning asosiy maqsadi katta o‘quvchilarini bolalar dunyosi ko‘pincha ancha murakkab bo‘lishi mumkinligidan xabardor qilishdir.

Ota-onalar bolalar boshidan kechiradigan har qanday muammolarni inkor etishga moyil bo‘lganligi sababli S.Hill ota-onalar uchun imkonsiz bo‘lib tuyuladigan bolalik baxtsizliklariga e’tibor qaratadi. Yozuvchining maqsadlariga erishish uchun u o‘z hikoyalarida balog‘atga yetish davridagi eng dahshatli va achinarli sahnalarni atayin aks ettiradi. S.Hill o‘z qahramonlarining balog‘atga yetish davrida boshdan kechirishi kerak bo‘lgan turli qiyinchiliklariga to‘xtalib o‘tadi. Uning tanlangan hikoyalarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, alohida qahramonlar o‘xshash azob-uqubatlardan azob chekishadi, o‘xshash oila muhitida o‘sadilar va o‘xshash kuchsizlik va yolg‘izlik

tuyg‘ularini boshdan kechiradilar.

Asarlardagi bolalarning baxtsizliklari baxtsiz oiladan kelib chiqadi. Ota-onalar ko‘pincha o‘z farzandlarini tushuna olmaydilar yoki hatto ularni butunlay e‘tiborsiz qoldiradilar, ularga to‘g‘ri yo‘l-yo‘riq ko‘rsata olmaydilar, ularni sevishga qodir bo‘lmaydilar. Shunday qilib, bolalarda hissiy bo‘shliq kuchayadi va bu bo‘shliq bolalarning boshqalar bilan normal munosabatda bo‘la olmasliklariga olib keladi. Uyg‘un bo‘lmagan oilaviy munosabatlar va, umuman, noloyiq ota-onalarning g‘amxo‘rliги ko‘plab jiddiy psixologik iztiroblarning sababi bo‘lib, bu bolalarning ichki xavfsizligi va o‘ziga bo‘lgan ishonchining pasayishiga olib keladi. Bu, ayniqsa, bolalar boshdan kechiradigan ko‘plab qo‘rquvlar orqali namoyon bo‘ladi. S.Hillning ta‘kidlashicha, ota-onalar farzandlarining umidsizliklarni e‘tiborsiz qoldirmasliklari kerak, chunki bu o‘z joniga qasd qilish bilan tugashi ham mumkin. Bu holat yozuvchi tomonidan Kingshou timsolida tasvirlandi. Bundan tashqari, S.Hill o‘z hikoyalari orqali ota-onalarga farzandlarining ular hayotida qanchalar muhim rol o‘ynashlarini tushunishlari uchun harakat qilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Boronska, T. (2008). ‘I’m the king of the castle’: The sibling bond–Art therapy groups with siblings in care. In C.Case & T.Dalley (Eds.), *Art Therapy with Children From Infancy to Adolescence* (pp. 54–68). New York: Routledge.
2. Bubiková, Š. (2008). *Literary childhoods: Growing up in British and American literature*. Pardubice: Univerzita Pardubice.
3. Burgess, A. (2002). *Mechanický pomeranč*. Praha: Volvox Globator.
4. Deeb, G.M.A. (2021). Child emotional and psychological abuse in Susan Hill’s I’m the King of the Castle. *Nile Valley Journal for Humanitarian, Social and Educational Studies and Research*, 5(8), 10–22.
5. Elder, G.H. (2019). *Children of the great depression* (25th ed.). New York: Routledge. <https://doi.org/10.4324/9780429501739>.
6. Flegel, M. (2016). *Conceptualizing cruelty to children in nineteenth-century England: Literature, representation, and the NSPCC* (1st ed.). London: Routledge. <https://doi.org/10.4324/9781315573335>.
7. Golding, W. (1954). *Lord of the flies*. London: Faber and Faber.
8. Halder, S. (2016). *William Golding’s Lord of the flies*. Delhi: Atlantic Publishers & Dist.
9. Hill, S. (1969). *A change for the better*. London: Hamish Hamilton.
10. Hill, S. (1970). *I’m the king of the castle*. London: Hamish Hamilton.
11. Hill, S. (1971a). *The albatross and other stories*. London: Hamish Hamilton.
12. Hill, S. (1971b). Friends of Miss Reece. In *The Albatross and Other Stories*. London: Hamish Hamilton.
13. Hill, S. (1973). The badness within him. In *A Bit of Singing and Dancing*. Harmondsworth: Penguin Books.
14. Hill, S. (1975). *The elephant man*. Cambridge: Cambridge University Press.
15. Holland, P. (2004). *Picturing childhood: The myth of the child in popular imagery*. London: I.B. Tauris.
16. Hunt, P. (1994). *An introduction to children’s literature*. Oxford: Oxford University Press.
17. Karakaş, B. (2015). To what extent is the theme of bullying in the novel “I Am the King of Castle” written by Susan Hill realistically portrayed?. *PhD thes*. Ankara: TED Ankara Koleji.
18. Kelly, M. (2000). *CliffsNotes on Golding’s Lord of the flies*. Lincoln: CliffsNotes Publishing.
19. Lumby, C. (2010). Ambiguity, children, representation, and sexuality. *CLCWeb* –

- Comparative Literature and Culture*, 12(4), 1–8. <https://doi.org/10.7771/1481-4374.1673>.
20. Mintz, S. (2020). Why history matters: Placing infant and child development in historical perspective. In W.Koops & F.Kessel (Eds.), *Historical Developmental Psychology* (1st ed., pp. 19– 30). London: Routledge.
 21. Miquel-Baldellou, M. (2021). ‘The End Lies in the Beginning: Embracing childhood and old age in Susan Hill’s ghost novels *The Small Hand* and *Dolly*. *International Research in Children’s Literature*, 14(3), 315–329.
 22. Moruzi, K., Smith, M., & Bullen, E. (Eds.). (2017). *Affect, emotion, and children’s literature: Representation and socialisation in texts for children and young adults* (1st ed.). London: Routledge. <https://doi.org/10.4324/9781315266961>.
 23. Paquette, D. (2004). Theorizing the father-child relationship: Mechanisms and developmental outcomes. *Human Development*, 47(4), 193–219.
 24. Pattison, R. (2008). *The child figure in English literature*. USA: University of Georgia Press.
 25. Reynolds, M., & Noakes, J. (2003). *Susan Hill: The essential guide to contemporary literature*. UK: Random House.
 26. Scutti, S. (2015, October 14). Neglect may be as harmful as a slap to a child: Emotional abuse has real consequences. *Medicaldaily.com*. <https://www.medicaldaily.com/neglect-may-be-harmful-slap-child-emotional-abuse-has-real-consequences-357164>.
 27. Sullivan, T. (1990). *I’m the king of the castle*, Susan Hill. London: Longman.
 28. Tanenhaus, D.S. (2008). Childhood in history, literature, and law: Confronting authority, illegitimacy, myth, and rights. *Journal of Women’s History*, 20(2), 183–191.
 29. Umenai, Sh. (2012). Meaning of Kingshaw’s Death in *I’m the King of the Castle*. *Paulownia Review*, 18, 77–83.
 30. Vinkers, C.D., Finkenauer, C., & Hawk, S.T. (2011). Why do close partners snoop? Predictors of intrusive behavior in newlywed couples. *Personal Relationships*, 18(1), 110–124.
 31. Woolfe, C. (1997). *I’m the King of the Castle: York Notes for GCSE*. London: Longman.
 32. Yakubov, I., & Omanova, M. (Tuzuvch.). (2020). *Badiiy tahlil asoslari*. Toshkent: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti.
 33. Zemanová, T. (2009). The image of childhood in Susan Hill’s prose. *BA thes*. Pardubice: University of Pardubice.
 34. Shklyarenko, O. (2011). The problem of child’s cruelty in W.Golding’s “*Lord of the flies*” and S.Hill’s “*I’m the King of the Castle*”. *Studencheskiy nauchnyy vestnik Ternopol’skogo natsional’nogo pedagogicheskogo universiteta imeni Vladimira Gnatyuka*, 36, 155–157.

REFERENCES

1. Boronska, T. (2008). ‘I’m the king of the castle’: The sibling bond--Art therapy groups with siblings in care. In C.Case & T.Dalley (Eds.), *Art Therapy with Children From Infancy to Adolescence* (pp. 54–68). New York: Routledge.
2. Bubíková, Š. (2008). *Literary childhoods: Growing up in British and American literature*. Pardubice: University of Pardubice.
3. Burgess, A. (2002). *A clockwork orange*. Prague: Volvox Globator.
4. Deeb, G.M.A. (2021). Child emotional and psychological abuse in Susan Hill’s *I’m the King of the Castle*. *Nile Valley Journal for Humanitarian, Social and Educational Studies and Research*, 5(8), 10–22.
5. Elder, G.H. (2019). *Children of the great depression* (25th ed.). New York: Routledge. <https://doi.org/10.4324/9780429501739>.
6. Flegel, M. (2016). *Conceptualizing cruelty to children in nineteenth-century England: Literature, representation, and the NSPCC* (1st ed.). London: Routledge. <https://doi.org/10.4324/9781315573335>.
7. Golding, W. (1954). *Lord of the flies*. London: Faber and Faber.

8. Haldar, S. (2016). *William Golding's Lord of the flies*. Delhi: Atlantic Publishers & Dist.
9. Hill, S. (1969). *A change for the better*. London: Hamish Hamilton.
10. Hill, S. (1970). *I'm the king of the castle*. London: Hamish Hamilton.
11. Hill, S. (1971a). *The albatross and other stories*. London: Hamish Hamilton.
12. Hill, S. (1971b). Friends of Miss Reece. In *The Albatross and Other Stories*. London: Hamish Hamilton.
13. Hill, S. (1973). *The badness within him*. In *A Bit of Singing and Dancing*. Harmondsworth: Penguin Books.
14. Hill, S. (1975). *The elephant man*. Cambridge: Cambridge University Press.
15. Holland, P. (2004). *Picturing childhood: The myth of the child in popular imagery*. London: I.B. Tauris.
16. Hunt, P. (1994). *An introduction to children's literature*. Oxford: Oxford University Press.
17. Karakaş, B. (2015). To what extent is the theme of bullying in the novel "I Am the King of Castle" written by Susan Hill realistically portrayed?. *PhD thes*. Ankara: TED Ankara College.
18. Kelly, M. (2000). *CliffsNotes on Golding's Lord of the flies*. Lincoln: CliffsNotes Publishing.
19. Lumby, C. (2010). Ambiguity, children, representation, and sexuality. *CLCWeb – Comparative Literature and Culture*, 12(4), 1–8. <https://doi.org/10.7771/1481-4374.1673>.
20. Mintz, S. (2020). Why history matters: Placing infant and child development in historical perspective. In W.Koops & F.Kessel (Eds.), *Historical Developmental Psychology* (1st ed., pp. 19–30). London: Routledge.
21. Miquel-Baldellou, M. (2021). 'The End Lies in the Beginning: Embracing childhood and old age in Susan Hill's ghost novels *The Small Hand* and *Dolly*. *International Research in Children's Literature*, 14(3), 315–329.
22. Moruzi, K., Smith, M., & Bullen, E. (Eds.). (2017). *Affect, emotion, and children's literature: Representation and socialisation in texts for children and young adults* (1st ed.). London: Routledge. <https://doi.org/10.4324/9781315266961>.
23. Paquette, D. (2004). Theorizing the father-child relationship: Mechanisms and developmental outcomes. *Human Development*, 47(4), 193–219.
24. Pattison, R. (2008). *The child figure in English literature*. USA: University of Georgia Press.
25. Reynolds, M., & Noakes, J. (2003). *Susan Hill: The essential guide to contemporary literature*. UK: Random House.
26. Scutti, S. (2015, October 14). Neglect may be as harmful as a slap to a child: Emotional abuse has real consequences. *Medicaldaily.com*. <https://www.medicaldaily.com/neglect-may-be-harmful-slap-child-emotional-abuse-has-real-consequences-357164>.
27. Shklyarenko, O. (2011). The problem of child's cruelty in W.Golding's "Lord of the flies" and S.Hill's "I'm the King of the Castle". *Student Scientific Bulletin of Ternopil National Pedagogical University named after Volodymyr Hnatyuk*, 36, 155–157.
28. Sullivan, T. (1990). *I'm the king of the castle, Susan Hill*. London: Longman.
29. Tanenhaus, D.S. (2008). Childhood in history, literature, and law: Confronting authority, illegitimacy, myth, and rights. *Journal of Women's History*, 20(2), 183–191.
30. Umenai, Sh. (2012). Meaning of Kingshaw's Death in I'm the King of the Castle. *Paulownia Review*, 18, 77–83.
31. Vinkers, C.D., Finkenauer, C., & Hawk, S.T. (2011). Why do close partners snoop? Predictors of intrusive behavior in newlywed couples. *Personal Relationships*, 18(1), 110–124.
32. Woolfe, C. (1997). *I'm the King of the Castle: York Notes for GCSE*. London: Longman.
33. Yakubov, I., & Omanova, M. (Comps.). (2020). *Fundamentals of artistic analysis*. Tashkent: Tashkent State Pedagogical University named after Nizomi.
34. Zemanová, T. (2009). The image of childhood in Susan Hill's prose. *BA thes*. Pardubice: University of Pardubice.